

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

Himoyaga ruxsat etildi:
fakultet dekani dotsent
_____ U.X.Meliboyev
«___»_____2017 yil

Kafedra mudiri,

«___»_____2017 yil

5320900 -"Yengil sanoati mahsulotlarini konstruktsiyasini ishlash va
texnologiyasi" (to'qimachilik sanoati) bakalavriat ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bitiruvchi

Bozorboyev Nozimjon Dolimjon o'g'lining
« 3517 artikuldagi poliefir tolali iplardan “Djinsi” matosini to'qishni
ilg'or texnologiyasi» mavzusidagi

BITIRUV MALAKA ISHI

Bajardi:

N.Bozorboyev

Rahbar:

A.Akramov

Maslahatchilar:

D.G'.Aliyeva

A.Mirzaumidov

Namangan – 2017 y.

Mundarija

Bet

Kirish

- I “Djinsi” matosini to’qish uchun texnologik xisobi
 - 1.1 Xomashyo va mato xossalari.
 - 1.2 To’quv dastgoxini turi va ishchi kengligini tanlash
 - 1.3 To’qimani taxtlash hisobi.
 - 1.4 To’quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash
 - 1.5 Ip o’ramlarini xisoblash va asoslash.
 - 1.6 To’quv korxonalarida chiqadigan chiqindilarni hisoblash
 - 1.7 Tanlangan mashina va dastgohlarni tezligi va ish unumdorligi
 - 1.8 8 O’tish jarayonlari bo’yicha yarim mahsulotlarning chiqish foizi his
 - 1.9 Tayyorlov bo’limi mashina dastgohlari muvofiqligini umumlash jadval
 - 1.10 Xom ashyo ombor hisobi.
- II Mexnat muxofazasi
 - 2.1 3517 artikuldagi poliefir tolali iplardan “djinsi” matosini to’qishda tsexlarda tok urishi xavfini oldini olish
- III Tashkiliy-iqtisodiy qism
 - 3.1 Ishlab chiqarishning o’timlar bo’yicha chiqindini taqsimlanishi
 - 3.2 Xom ashyo balansi.
 - 3.3 Korxonada ishchilar sonini aniqlash
 - 3.4 Tugallanmagan ishlab chiqarish.
 - 3.5 Korxonada elektr energiya sarfi.
 - 3.6 Korxonaning tashkiliy texnologik ko’rsatkichlari.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Ilova

K i r i s h

O'zbekiston to'qimachilik sanoati mustaqillik yillarida katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Xorijiy investitsiyalar keng ko'lamda jalb etilmoqda. Natijada to'qimachilik sanoatida tub yangilanishlar ko'zga tashlanmoqda. Ilg'or xorijiy firmalar texnika va texnologiyasi bilan jihozlangan korxonalar soni kun sayin ortib bormoqda. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligi tufayli chet elga eksport qilinib, xaridorlar qamrovi kengaymoqda. Rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ishlayotgan korxonalarda asosan mahalliy xom ashyo – paxta, jun va pilla qayta ishlanmoqda.

O'zbekistonda yetishtirilgan paxta, jun, ipak tolasi jahon bozorida xaridorgir hisoblanadi. Qayta ishlanib olingan tayyor mahsulot eksport qilinmoqda.

Respublikamizda kelgusida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va jadal rivojlantirishni ta'minlash, paxta tolasi va ipak xom ashyosini chuqur qayta ishlash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish yo'li bilan raqobatbardoshli, tashqi bozorlarda talab qilinadigan tayyor, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini kengaytirish bo'yicha tizimli ishlar tashkil etilmoqda [1].

To'qimachilik respublika rivoji uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki xuddi mana shu tarmoqda ko'plab halq iste'moli mollari ishlab chiqarilmoqda va ishchi o'rinlari oshirilmoqda. Agar Respublika o'z mustaqilligiga erishguniga qadar sanoqli to'qimachilik kombinatlari qurilgan bo'lsa, keyingi o'n yil ichida ko'plab yirik, paxtani qayta ishlash korxonalari foydalanishga topshirildi va ularda jahon bozori talablariga javob bera oladigan tayyor va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida jahon andozalari talablariga javob beraoladigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga yanada katta e'tibor qaratilmoqda. Faqat eksportga mo'ljallangan va uning talablarini to'la

qondira oladigan mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan korxonadagina iqtisodiy samara yuqori bo'ladi.

O'zbekiston to'qimachilik korxonalari dunyoning nufuzli firmalarida tayyorlangan yuqori texnologiya asosida ishlaydigan mashinalar bilan jihozlanmoqda. Ushbu natijalarni yanada yaxshilash, jahon talablariga to'la javob bera oluvchi raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun to'qimachilik sanoati mutaxassislari, bakalavrlari, ishchi xodimlari yuqori bilim va kasb mahoratiga ega bo'lishi, ilg'or tajribalarni o'rganishi va malakalarini doimo oshirib borishi kerak bo'ladi.

Korxonalarda zamonaviy va jahon darajasida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan texnologiyalarni ildam sur'atlar bilan o'zlashtirish, mamlakatimiz korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatdoshligini yanada oshirish, shu asnosida sanoat tarmoqlarining barqaror rivojlanishi va eksport salohiyatining o'sishini ta'minlash, shuningdek, energiya samaradorligi va energiya tejamkorligi standartlarining iqtisodiyotga faol tadbqiq etish dolzarb masaladir [2].

Yangi texnika – texnologiya va malakali mutaxassislar ishtirokida tayyorlanayotgan kalava iplarga, nafis matolarga, bejirim liboslarga, trikotaj buyumlariga, go'zal uy jihozlariga, jilodor rango-rang divan, kreslo, yengil mashina o'rindiqli qoplamalariga ichki va tashqi bozorda talab kundan kunga ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston to'qimachilik sanoati umumjahon bozorida munosib o'rin egallamoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik va yengil sanoati korxonalari oldida ham ularning samaradorligini oshirishda muhim vazifalar turibdi. Bu korxonalardagi samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish orqali daromadni oshirishga erishishdan iborat.

I. «Djinsi» matosini to'qish uchun texnologik xisobi

1.1 Xomashyo va mato xossalari.

To'quv korxonasida to'qiladigan «Djinsi» nomli mato uchun karda yigirish sistemasida yigirilgan tanda va arqoq iplarini chiziqli zichligi 50 teks bo'lgan 4tip I so'rt 4 tip II so'rt paxta va poliefir tolali iplardan to'qiladi.

Loyiha ishlar

Tt=50; Ta=50 teks bo'lgani uchun karda yigirish sistemasi qabul qilindi.

Karda yigirish sistemasi

Bu sistemada asosan o'rta tolali paxtadan chiziqli zichligi $t=15,4 \div 50$ teks ($Nm=20 \div 65$) bulgan iplar ishlab chiqariladi. Ushbu ishlab chiqarilgan iplardan surp, satin, chit, shim, palto, kurtka kabi bejirim matolar xamda trikotaj buyumlari tayyorlanadi.

Karda yigirish sistemasida titish-tozalash, tarash, pitalash, I÷II o'tim, yigirish kabi jarayonlar amalga oshirililadi.

1-jadval

№	Texnologik jarayondagi jihozlar	Loyihada qabul qildim
1	Avtomatik toy titgich	UNIfloc A 11
2	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashna	UNIClean B 11
3	8 kamerali tola aralashtirgich	UNImix V 70
4	Tozalovchi mashina	UNIflex V 60
6	Tarash mashinasi	S 60
7	Pitalash mashinasi I÷II o'tim	RSB-D 45
8	Pnevmomexanik ip yigirish	R60

Sarja o'rilishli matolarning o'ziga xos tomoni shundaki, ularning o'ng tomonida diagonal bo'ylab ketgan yo'llar bo'ladi. Bu diagonal yo'llari matolarning o'ngida, odatda, chapdan o'ng tomonga, pastdan yuqoriga (o'ng sarja), ba'zan esa

o'ngdan chapga qarab ketadi (chap sarja). O'ng sarja o'rilishi ko'proq ishlatiladi. Sarja rapportidagi iplar soniga hamda tanda va arqoq zichligiga qarab sarja o'rilishidagi yo'llarni qiyalik burchagi har xil bo'lishi mumkin. Agar tanda va arqoq iplarining zichligi va yog'onligi bir xil bo'lsa, sarja yo'llarining burchagi 45 gradusni tashkil qiladi.

Sarja o'rilishining tuzilishi quyidagilarga bog'liq:

1. Rapportdagi iplarning soni uchtdan kam bo'lmaydi.
2. Har bir tanda yoki arqoq qoplanish har mahal bitta ipga siljiydi: $Z=1$.

Ana shu siljish tufayli gazlama yuzasida diagonallar paydo bo'ladi.

Sarja o'rilish bilan to'qilgan ip matolardan-jinsi, bumazeya, sarja, kashemir; jun matolaridan-triko, kashemir va yana bir qator ko'ylaklik va kostyumlik matolarni; paxta matolaridan-astarbop sarja, ko'ylaklik matolarni eslab o'tsa bo'ladi. Sarja o'rilishli matolar yumshoq, mayin, lekin polotno o'rilishli matolarga qaraganda mustaxkamligi pastroq va diagonal yo'nalishda cho'ziluvchan bo'ladi.

Jinsi gazlamalarni sarja tandasida rangli iplardan, arqog'ida esa xom iplardan to'qiladi. Bu gazlamalarning g'ijimlanmasligini va kiyimning shaklini saqlash hususiyatini ta'minlash uchun unga yuvilib ketmaydigan appret bilan ishlov beriladi.

Ayrim artikullarning tolali tarkibida lavsan tolasi qo'shiladi. Jins gazlamasi yoshlar sport kiyimlari, kurtkalar, shimlar tikishda keng qo'laniladi.

Ayrim artikullarning tolali tarkibida lavsan tolasi qo'shiladi. Jins gazlamasi yoshlar sport kiyimlari, kurtkalar, shimlar tikishda keng qo'laniladi.

Jinsilik gazlamalar faqat paxtadan yoki paxtaga lavsan aralashtirib to'qiladi.

Paxta lavsanlik jinsilik gazlama "Primor'e"- qalin xom gazlama; sarja yo'llari yaxshi bilinib turadi. Tanda va arqog'iga 25% lavsan tolasi bo'lgan 50teksli kalava ip ishlatilgan; eni 150sm, 1m² gazlamaning massasi 280 gr.

Ip gazlamalarni turli maqsadlar uchun ishlatiladi: ichki kiyim, erkaklar ayollar va bolalar ko'yilaklari, kundalik, maxsus va sport ko'yilaklari, astandan, pardalik va xokazolar sifatida. Ip gazlamalari turmushga zarur gazlamalar, chunki ular ijobiy gigenik xosalarga (gigroskopikligi, xavo o'tkazuvchanligi va x.k) ega, tashki ko'rinishi chiroyli, mustaxkamligi, turli deformasiyalar ta'siriga chidamligi yengil yuviladi, tez quriydi, yaxshi dazmollanadi. Tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda deyarli qiyinchilik tug'dirmaydi. Bichish to'shamiga yaxshi taxlanadi, siljuvchanligi kam, bichish jarayonida surilmaydi va qiyshaymaydi, qirqilgan joydan iplari to'kilmaydi, tikish paytida iplari ignalari bilan shikaslanmaydi, choklar yonidagi iplari siljimaydi. Biroq ip gazlamalari ko'p g'ijimlanadi, ishqalanishga chidamligi kam yuvganda kirishmaydi. Manna shu xususiyatlarini yaxshilash uchun ip gazlamalari paxta va sintetik tolalar aralashmasidan ishlab chiqariladi.

Keng tarqalgan ip gazlamalarning tavsiflari. Amaliy preysko'uranda turmushda va texnikada ishlatuvchi 1300 dan ortiq artikuldagi ip gazlamalar kiritilgan bo'lib ular 17 guruxga ajratilgan. Bulardan eng keng ishlatiladiganlari 1-6 guruxlari tashkil qiladi.

Birinchi guruh – klassik ip gazlamalardan biri. Uni ishlab chiqarish jami bo'yicha ayollar va erkaklar ko'yilagibop gazlamalardan keyin 2-o'rinda turadi. Chit polotno o'rilishda tanda va arqoq yo'nalish chiziqli zichligi 15,4-20 teks bo'lgan karda yigirish usulida olingan iplardan ishlab chiqariladi. Chitlarning eni 62-100 sm, yuza zichligi 92-110 g/m² ga teng. Chit gazlamalar pardozlanishiga ko'ra gul bosilgan, sidirg'a rangli bo'ladi. Turli maqsadlarda qo'llaniladi, jumladan ayollar va bolalar kiyimlari, erkaklar ko'yilagi, ichki kiyimlar va chayshoblar.

Ikkinchi guruh- srup gazlamalari chitga nisbatan dag'alroq, yuza zichligi 124-160 g/m², polotno o'rilishiga sidirg'a rangli va gul bosilgan xolda ishlab chiqarilgan ip gazlama. Tanda va arqoq iplarning chiziqli zichligi 22-50 teks, eni 80-150 sm. gul bosilgan surplar bolalar kostyumlari, ayyollar va erkaklar

ko`ylaklari uchun, sidirg`a ranglari esa maxsus ichki kiyimlarga , ustki kiyimlarning cho`ntaklari va qotirma qismlar sifatida ishlatiladi.

Uchinchi guruh- chayshobbop gazlamalar. Bu guruhga kiruvchi gazlamalar uchga bo`linadi : surp, mitkal va maxsus gazlamalar guruhchalari.

CHoyshobbop sruplar oddiy sruplardan o`zining pardozi bilan farqlanib, oqartirilgan xolda ishlab chiqariladi va choyshoblar, tibbiyot xodimlari va oziq-ovqat savdosi bilan shug`ilanuvchilarning maxsus kiyimlari uchun ishlatiladi.

Mitkal guruxchasida kiruvchi chayshobbop gazlamalar xom xolda mitkal deb ataladi. Tuzilishi chitga o`xshash. Mitkal asosida mayin pardozlangan xolda (appret miqdori 1,5 %dan kam) muslin, appret miqdori 1,5-2,5% bo`lsa, mitkal, appret miqdori 2,5-3% dan oshsa madapolat nomli gazlamalar olinadi. Bu guruhchaga kiruvchi gazlamalar chayshobbop surpdan yupqa, yuza zichligi 45-110 g/m², eni 75-150sm gacha bo`ladi. Tanda va arqoq iplarning yo`g`onligi 11,8-20,0 teks. Bu gazlamalar polotno o`rilishida to`qiladi. Oqartirilgan yoki ochiq rangda sidirg`a qilib pardozlanadi. Muslin gazlamasidan tungi ko`ylak, mitkal va madapolatdan chayshoblar tayyorlanadi. Bu gazlamalar uchun qayta tarash usulida yigirilgan iplar ishlatiladi. SHu sababli yupka va mayin.

Maxsus gruxga «grinsbon» va «tik-lastik» nomli oqartirilgan gazlamalar kiradi. Grinsbon teskari sarja, tik-lastik atlas o`rilishda ishlab chikariladi. Bu gazlamalarning tanda va arqoq iplarga chiziqli zichligi 25-36 teksli yigirish usulida olingan iplar ishlatiladi. Bu gazlamalar mudofa xodimlarining ichki kiyimlari uchun ishlatiladi.

To`rtinchi guruh–satin o`rilishdagi satin gazlamalari kiradi. Bu guruh gazlamalarning tuzilishida ishlatilgan iplarning turiga ko`ra ikkiga bo`linadi: karda yigirish usulida va qayta tarash usulida olingan iplardan ishlab chiqarilgan satinlar. Birinchi guruhchadagi satinlar chiziqli zichligi 15,4-18,5 teksga teng karda iplaridan ishlab chiqariladi. Yuza zichliklari 124-150 g/m². ikkinchi guruhchadagi satinlar tanda yo`nalishda 10-15,4 teks, arqon yo`nalishda 8,5-

11,8 teks bo'lgan qayta tarash usulida olingan iplardan iborat. Yuza zichligi 114-130 g/m².

Satin gazlamalarida arqoq yo'nalishdagi zichligi va to'ldirishi tanda yo'nalishdagiga nisbatan ikki marotaba ko'p. SHuning uchun ularning sirti siliq, o'ng tomoni yaltiroq bo'ladi.

Xudi shunday, ip gazlamalarning atlas o'rilishdagi lastik deb ataladi. Satin va lastik gazlamalarning eni 60-100 sm. ular sidirg'a rangli, gul bosilgan va kamdan kam xollarda oqartirilgan bo'lishi mumkin.

Satin va lastiklar ayyolar xalatlari va ko'yilaklari, ko'rpa va yostiq jiltlari, sidirg'a ranglari esa astarlik va maxsus kiyimlar uchun ishlatiladi.

Beshinchi guruh- ko'yilakbop gazlamalar kiradi. Ip gazlamalarning assortimentida bu guruh asosiy, eng kata va ko'p xildagi gazlamalardan iborat. U to'rtga bo'linadi. a) yozgi, b) mavsumiy, d) qishki, suniy ipak qopshib ishlab chiqariladi.

Ko'yilakbop gazlamalarni katta qismi karda yigirishda olingan yakka va pishitilgan iplardan ishlab chiqariladi. Eng sifatli gazlamalarda esa yo'nalishlarning birlarida yoki ikkalasida qayta tarash usulida olingan iplar, ba'zi gazlamalarda shakldor iplar xam ishlatiladi. Gazlamalarning tashqi ko'rinishi va xususiyatlarini yaxshilash uchun paxta ipiga kimyoviy tola yoki iplar qopshiladi, mayda guli o'rilishlar qo'llaniladi, pardozlashda maxsus ishlov beriladi.

Oltinchi guruhda- kiyimbop gazlamalar mujassam. Bular jumlasidan kostyum, shim, palto, kurtka, plash va maxsus kiyimlarni tikish uchun ishlatiladigan zich to'qilgan, ishqalanishga chidamli va mustaxkam gazlamalar kiradi. Ular ichida sidirga va xar xil rangli iplardan to'qilgan gazlamalar ko'p miqdorni tashkil etadi. Kiyimbop gazlamalar, asosan, karda usulida yigirilgan yakka (25-70 teks) yoki pishitilgan (15,4 teks x 2-25 teks x2) iplardan ishlab chiqariladi. Keyingi paytlarda kimyoviy tolalar xam kiyimbop gazlamalarning

tolali tarkibiga kiritilmoqda. Pardoatlanish jarayonida ishqorli, g'ijimlanmaydigan va kirishmaydigan maxsus ishlovlar beriladi.

Kiyimbop guruh to'rtta guruhchaga bo'linadi a) sidirga rangli, b) maxsus, d)kishki, y) xar xil rangli iplardan to'qilgan va chipor gazlamalar.

Sidirg'a rangli guruhcha- klassik gazlamalardan iborat: diagonal , moleskin, reps.

Diagonal- sarja o'rilishidagi maxsus ish kiyimlari uchun ishlatiladigan gazlama. Tandasida 42 teksli , arqog'ida 29-72 teksli iplardan foydalaniladi.

Yuza zichligi 180-380g/m², eni 67-100 sm . Ayrim artikullarida 12-15% kapron tolasi qo'shiladi.[4]

To'qimani to'la taxtlash ko'rsatkichlari.

2-jadval

To'qimani nomlanishi	Artikulni Nomi	To'qimani eni	Ipni chiziqiy zichligi			Iplar soni		10 sm. iplar soni	
			T _t	T _a	T _{qir.}	Jami	Qirg'og'i	R _t	R _a
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jinsi	3517	157	50BD 25% VPef	50BD 25% VPef	25x2 BD	3339	72	315	184

2-jadvalning davomi

Iplarni qisqarishi		Tig'			O'rinish	Dastgoh turi	To'qimani og'irligi	Chiqindi miqdori		100pog.m.uchun to'qimqa uchun xom ashyo sarfi	
								Tanda	arqoq	Tanda bo'yicha	Arqoq bo'yicha
A _t	A _a	Nomer	fon	Qirg'oq							
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
10	4,8	100	3	3	Sarja 3/1	STB	278	1,62	0,20	26,557 Kr0,405	15,493

[3]

1.2 To'quv dastgoxini turi va ishchi kengligini tanlash.

1. To'quv dastgoxini turini tanlash

Berilgan to'qima assortimentini to'qib chiqarish uchun to'quv dastgoxini to'g'ri tanlash muxim ro'l o'ynaydi. Ishlab chiqariladigan to'qima sifati, mahsulot miqdori, sarf harajatlarni kamayishi, qo'l mehnatini yengillashtirish kabi ko'rsatkichlar, to'qima dastgoxini to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

To'quv dastgoxini tanlashda quyidagilar asosiy manba hisoblanadi:

1. Berilgan to'qima assortimentini to'qish uchun tola yoqi ipni nisbiy qalinligi to'g'ri kelishi.

2. Berilgan to'qima assortimenti to'qilgandan so'ng olinadigan xom to'qima kengligini, standart tayyor to'qima kengligiga to'g'ri kelishi.

3. To'qima uchun o'rilish turini olish mumkinligi.

4. To'quv dastgoxida berilgan to'qima assortimentini to'qish imkoniyatini aniqlash (tanda va arqoq iplarini to'qimadagi zichligiga, o'rilish turiga va boshqalarga bog'liq). Bu imkoniyatlar to'quv dastgoxi harakteristikasida ko'rsatiladi.

To'quv dastoxini ishchi kengligini tanlashda uni ishlatish imkoniyatidan to'liq foydalanishga harakat qilish zarur.

ATPR va STB to'quv dastgoxlarida arqoqni xomuzaga tashlash usuli to'qimani har kanday kenglikda to'qish mumkin emasligini ko'rsatadi. ATPR to'quv dastgoxlari uchun tig' bo'yicha tanda kengligi quyidagi jadvalda ko'rsatiladi.

To'quv dastgoxini turini tanlash quyidagi ko'rsatkichlarni miqdorini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

1. To'qimani bog'lanish koeffitsenti S va uni tolali materiallar bilan to'ldirish koeffitsent K_{tk} lari aniqlanadi, dastgox turini tanlanadi.

2. Tig' bo'yicha tandani taxtlash kengligiga qarab dastgox ishchi kengligi tanlanadi, xom to'qima kengligiga javob berishi kerak («Tayyor to'qimalar kengligi» GOSTiga yahni davlat standarti talablariga javob berish kerak).

To`qimani bog`lanish koeffitsenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$T_{o'r} = \frac{T_t + T_a}{2} = \frac{50 + 50}{2} = 50$$

$$c = \frac{P_t \cdot P_t \cdot T_{o'r}}{F \cdot 1000} = \frac{31,5 \cdot 18,4 \cdot 50}{1,33 \cdot 1000} = 21,78$$

R_m – to`qimani tanda iplari buyicha zichligi – ip/sm da.

R_a – to`qimani arqoq iplari buyicha zichligi – ip/sm da.

$T_{o'r}$ – tanda va arqoq iplarini o`rtacha chiziqli zichligi – teksda.

G – o`rilishi koeffitsenti.

R_m, R_a – tanda va arqoq iplari buyicha urilishi rapportlari.

T_m, t_a – da iplarini arqoq ipini rapport chegarasida kesib utish soni.

G – o`rilish koeffitsentini aniklashga bir necha misollar:

1. sarja o`rilishi 3/1

			0
		0	
	0		
0			

	x	x	x
x	x	x	
x	x		x
x		x	x

//	//		//
//		//	//
	//	//	//
//	//	//	

$$R_t = R_a = 4$$

$$S = 1$$

$$t_t = 12$$

$$t_a = 12$$

t_m – tanda iplarini arqoq kesib utishi arqoq iplarini tanda kesib utishi rapport 2

ga teng.

$$F = \frac{2 \cdot R_t \cdot R_a}{t_t + t_a} = \frac{2 \cdot 4 \cdot 4}{12 + 12} = 1,33$$

To`qimani tolali materiallar bilan to`ldirish koeffitsenti.

A). To`qimani tanda iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{TT} = \frac{P_T (R_T \cdot d_T + r_A \cdot d_A)}{R_T \times 10} = \frac{31,5 \cdot (4 \cdot 2,74 + 4 \cdot 2,74)}{4 \cdot 10} = 17,262$$

B) To`qimani arqoq iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{TA} = \frac{P_A \cdot (R_A \cdot d_A + r_T \cdot d_T)}{R_A \cdot 10} = \frac{18,4(4 \cdot 2,74 + 4 \cdot 2,74)}{4 \cdot 10} = 10,083$$

$P_T P_A$ – to`qimani tanda va arqoq bo`yicha zichligi, ip/sm

$R_T R_A$ – to`qimani tanda va arqoq buyicha rapporti, ip/sm

$d_T d_A$ – tanda va arqoq ipi diametri, mm.

r_T – o`rilish rapportida tanda ipini to`qimani bir tomonidan ikkinchi tomoniga o`tish soni (1 ta ip oralig`ida)

r_A – o`rilish rapportida arqoq ipini to`qimani bir tomonidan ikkinchi tomonga o`tish soni (1 ta ip oraligida)

Ip diametri ushbu formula bilan aniqlandi.

$$d_T = 0,316 \cdot C \sqrt{T} = 0,316 \cdot 1,23 \sqrt{50} = 2,74$$

$$d_A = 0,316 \cdot C \sqrt{T} = 0,316 \cdot 1,23 \sqrt{50} = 2,74$$

S– ip turiga bog`lik bo`lgan doimiy koeffient.

Masalan: paxta tolalari uchun ($1,23 \div 1,28$)

T – ipni chiziqli zichligi, teks.

V) To`qimani tolali materiallar bilan tuldirish koeffitsenti.

$$K_{to`q} = K_{TT} \cdot K_{TA} = 17,262 \cdot 10,083 = 174,056$$

K_{TT} -o`qimani tanda iplari bilan tuldirish koeffitsenti.

K_{TA} -to`qimani arqoq iplari bilan tuldirish koeffitsent

2. To`quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash.

To`quv dastgoxida to`qilgan xom to`qima kengligi shunday bulishi kerakli, pardoqlash jarayonidan so`ng olinadigan davlat standart talablariga javob beradign «Tayyor to`qima kengligi» ga mos kelishi shart.

«Tayyor to'qimalar kengligi» davlat standartlari quyidagilardir:

1. Paxta tolasidan ishlab chiqariladigan to'qimalar uchun GOST-9205-76
2. Shoyi va yarim shoyi to'qimalar uchun GOST – 9202 – 82
3. Jun va yarim junli to'qimalar uchun GOST – 9204 – 76

Xom to'qima kengligi tanlashda dastgox ishchi kengligidan to'liq foydalanish kerak.

Tig bo'yicha kengligi GOST=80,85,90,95,100,105,110,...130,140,150.[5]

1. To'quv dastgoxini ishchi kengligini tanlash

A) Xom to'qimani pardoqlash jarayonida qisqarishi (eni bo'yicha)

$$U_y = \frac{B_x - B_T}{B_x} \cdot 100 = \frac{160 - 157}{160} \cdot 100 = \frac{3 \cdot 100}{160} = 1,87$$

V_x – xom to'qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoqi qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

V_t – tayyor to'qima kengligi, sm (fabrika buyicha yoqi qo'llanma bo'yicha qabul qilinadi).

U_u – ni fabrika yoqi qo'llanma bo'yicha tanlab olish xam mumkin.

2. GOST bo'yicha tayyor to'qima kengligini tanlash, $B_{T=200}$

3. pardoqlash jarayonidan so'ng xosil bo'ladigan tayyor to'qima kengligiga mos keladigan xom to'qima kengligini hisoblash.

$$B_x = \frac{B_T}{(1 - 0.01 \cdot U_y)} = \frac{200}{1 - 0.01 \cdot 1,87} = 203,811 [sm]$$

4. Tandani tig' bo'yicha kengligini hisoblash.

$$B_T = \frac{B_T}{(1 - 0.01 \cdot U_y)} = \frac{200}{(1 - 0.01 \cdot 4,8)} = 214,087 [sm]$$

a_A – to'quv dastgoxida xosil bo'lgan to'qimadagi arqoq ipini kirishishi. (qo'llanmadan yoqi quyidagi formuladan hisoblash mumkin)

1.3 To'qimani taxtlash hisobi.

1. To'qimani urtasi va kirgogi kengligini hisoblang.

A) To'qima o'rtasi kengligi

$$B_{o'r} = B_x - B_{qir} = 203,811 - 2 = 201,811 \text{ [sm]}$$

B) To`qima qirgogi kengligi

$$B_{qir} = \frac{n_{qir}}{P_{qir}} = \frac{72}{31,5} = 2,28 \approx 2 \text{ [sm]}$$

n_{qir} – qirg`oq iplari soni

R_{qir} – qirg`oq iplari zichligi [*ip* / *sm*]

Moqili to`quv dastgoxlari uchun qirgoq zichligi quyidagicha:

Agar $T_{kir} > T_{o'r}$ bo`lsa  $R_{qir} = R_{o'r}$  teng bo`ladi

$$T_{qir} = T_{o'r} \quad R_{qir} = 2 R_{o'r}$$

Moqisiz to`quv dastgoxlarida to`qima qirg`og`i zichligi to`qima o`rtasi zichligiga teng, yahni $R_{qir} = R_{o'r}$ yoqi to`qima qirg`og`i zichligi o`rtasi zichligidan kam bo`ladi, bunga sabab to`qimadagi arqoq zichligi to`qima qirg`og`ida ikki barobar ko`p bo`ladi. (o`rtasiga nisbatan).

STB dastgoxi uchun : $B_{qir} = 3,0$ ga teng

ATpR dastgoxi uchun: $B_{qir} = 1,4$ dan $2,0$ [*sm*] ga teng.

2. Tanda iplari sonini xisobi.

A) To`qimani o`rta iplari soni

$$n_{o'r} = B_{o'r} \cdot P_{o'r} = 201,811 \cdot 31,5 = 6357,046 \approx 6358 \text{ [ip]}$$

B) To`qima iplari qirgoq bo`yicha

$$n_{qir} = B_{qir} \cdot P_{qir} = 2 \cdot 31,5 = 63 \text{ [ip]}$$

V) Umumiy tanda iplari soni

$$n_t = n_{o'r} + n_{qir} = 6358 + 63 = 6421 \text{ [ip]}$$

3. Tig` hisobi

A) Tig` nomerini aniqlash.

$$N_b = \frac{P_T \cdot (1 - 0,01 \cdot a_l)}{Z_{o'r}} = \frac{315 \cdot (1 - 0,01 \cdot 4,8)}{3} = 99,9 \approx 100 \text{ [tish / sm]}$$

$Z_{o'r}$ – to`qima urtasi iplarini tigdan o`tish soni

a_l – to`qimada arqoq ipi kirishishi %

N_b – GOST bo'yicha eng yaqini tanlab olinsin

b) Tig' tishlari soni

$$X = \frac{n_{o'r}}{Z_{o'r}} + \frac{n_{qir}}{Z_{qir}} = \frac{6358}{3} + \frac{63}{3} = 2140.33 \approx 2141 [dona]$$

Z_{kir} – tindan kirgoq iplarini o'tkazish soni

X_{zax} – zoxiradagi tig' tishlari

Moqili dastgoxlar uchun $X_{zax} = 4 - 12$, moqisiz to'quv dastgoxlarida zoxira tishlar olinmaydi.

4. SHoda hisobi.

3-jadval

Tanda ipini chiziqli zichligi	O'lchov birligi	(Rg) gula/sm
$T_t = 10$ gacha	Teks	12-14
$T_t = 11-15$	Teks	10-12
$T_t = 25-50$	Teks	8-10
$T_t = 50$ dan yuqori	Teks	4-6

SHodalar soni to'qima o'rinishiga, tanda iplari zichligiga va ularni o'tkazish usuliga qarab qabul qilinadi.

Qatorli va sochma o'tkazish usullarida shoda hisobi quyidagicha:

A). O'rta iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{o'r} = \frac{n_{o'r}}{n_{shoda.o'r}} = \frac{6358}{4} = 1589,5 \approx 1590 [gula]$$

B). Qirgoq iplari uchun shoda gulalari soni.

$$\Gamma_{qir} = \frac{n_{qir}}{n_{shoda.qir}} = \frac{63}{2} = 31,5 \approx 32$$

V) Xamma shodadagi gulalar soni

$$\Gamma_{qo'sh} = \Gamma_{o'r} \cdot II_{shoda.o'r} + \Gamma_{qir} \cdot II_{shoda.qir} + \Gamma_{qo'shmcha} = 1590 \cdot 4 + 32 \cdot 2 + 4 = 6428 [gula]$$

G_{qopsh} – zaxira gulalar soni (har bir shoda uchun 2 tadan 4 tagacha)

G). shoda kengligi

$$B_{shoda} = B_{t,b} + (1/2sm) = 214,087 + 1,913 = 216(sm)$$

B_{shoda} – butun son kurinishida olinsin

$$P_r = \frac{\Gamma_{o'r}}{B_{shoda}} = \frac{1590}{216} = 8[gula / sm]$$

D). Shodadagi gulalar zichligi gula zichligi ruxsat etilgan gula zichligiga teng yoki undan kichik bulishi shart, ya`ni $R_r < [P_r]$. Ruxsat etilgan gula zichligi tandan ipini chizikli zichligiga asosan kuyidagi jadvalda berilgan.

5. Tanda kuzatgich hisobi.

A) Lamel soni tanda iplari soniga teng.

$$n_L = n_T [lamel]$$

B) Lamel zichligi

$$P_{\lambda} = \frac{n_{\lambda}}{M_{reyka} \cdot (B_{shoda} + 1)} = \frac{6421}{2 \cdot (216 + 1)} = 14,79[10m / sm]$$

$T_{reyk}=2-6$ gacha – lamel reykaları soni

Lamel zichligi ruxsat etilgan zichlikdan kichik yoqi unga teng bo`lishi shart, ya'ni;

6. 100 metr xom to`qima to`qish uchun sarflanadigan ip og`irligi.

A) 100 metr xom to`qima to`qish uchun to`qimani o`rtasiga sarflanadigan tanda iplari og`irligi.

$$M_{o'r} = \frac{\Pi_{o'r} \cdot T_{o'r} \cdot (1 - 0,01 \cdot B\%)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{6358 \cdot 50(1 - 0,01 \cdot 0,7)}{10^6 (1 - 0,01 \cdot 10)} = 35,074$$

$B=0,7$ deb qabul qildik.

“To`quv jarayonlarini loyihalash” o`quv uslubiy qo`llanma.Namangan 2011-yil D.G` Aliyeva.[6]

b) 100 metr xom to`qima to`qish uchun to`qimani kirg`og`iga sarflanadigan tandan iplari og`irligi.

$$M_{qir} = \frac{\Pi_{qir} \cdot T_{qir} \cdot (1 - 0,01 \cdot B\%)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot a_T)} \cdot 100 = \frac{63 \cdot (25 \times 2) \cdot (1 - 0,01 \cdot 0,7)}{10^6 \cdot (1 - 0,01 \cdot 10)} \cdot 100 = 0,347[kg]$$

Yuqoridagilarni hisoblashda oxorlash jarayonidagi tanda uzayishi V% hisobiga olinadi, B % ni miqdori turli iplari uchun quyidagicha:

Eshilmagan (bittali) paxta tolalari uchun – 0.7 % (1 %)

Eshilgan (ikkilangan) paxta tolalari uchun- 0,4 %

SHtapel viskoza tolalari uchun – 1,5 %

Sun'iy va sintetik tolalar uchun – 5,5 %

V) Agar tanda oxorlansa, u xolda qoldik oxor miqdorini hisobga olib tanda og'irligi hisoblanadi.

qoldiq oxor miqdori

$$\Pi_{qol} = \frac{2}{3} \cdot \Pi_{xaq} [\%] = \frac{2 \cdot 6}{3} = 4$$

PX=6 P.S.Siddiqov “Texnologik jarayonlarni loyihalash”120-bet 2005-yil.[7]

$$M_T = (M_{o'r} + M_{qir}) \cdot (1 + 0.01 \cdot \Pi_{qol}) = (35,074 + 0,3) \cdot (1 + 0,01 \cdot 4) = 36,788 [kg]$$

g) 100 metr xom to'qima uchun sarflanadigan arqoq ipi og'irligi, kg

$$M_{arq} = \frac{P_{arq} \cdot 10 \cdot T_{arq} \cdot L_{arq}}{10^6} \cdot 100 = \frac{184 \cdot 10 \cdot 50 \cdot 2,17}{10^6} \cdot 100 = 19,96 [kg]$$

L_{arq} – arqoqni xomuzadagi uzunligi, m da,

$$L_{arq} = B_{t.b} + B_q = 214,087 + 2 = 216,087 \approx 2,160 [m]$$

7. 1 metr xom to'qima og'irligi, kg

$$M_m = \frac{M_T + M_{arq}}{100} = \frac{36,788 + 19,96}{100} = 0,567 [kg]$$

8. 1 metr kvadrat xom to'qima og'irligi

$$M_m = \frac{M_T + M_{arq}}{Bx \cdot 100} = \frac{35,074 + 19,96}{203,811 \cdot 100} = 0,270 [kg/m^2]$$

9. To'qimani tola materiallar bilan qoplanishi, % da.

A) Tanda buyicha

$$E_T = P_T \cdot d_T \cdot 100\% = 3,15 \cdot 2,74 \cdot 100 = 863,1$$

B) Arqoq buyicha

$$E_{arq} = P_{arq} \cdot d_{arq} \cdot 100\% = 1,84 \cdot 2,74 \cdot 100 = 504,16$$

V) To'qimani tashki qoplanishi

$$E_{tuk} = E_T + E_{arq} - \frac{E_T \cdot E_{arq}}{100} [\%] = 863,1 + 504,16 - \frac{863,1 \cdot 504,16}{1000} = 932,12$$

To'qilayotgan mato jinsi bo'lgani uchun zichlik 10 barobar oshgan.

To'qimani taxtlash hisobini jamlash jadvali.

4-jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi		SHartli belgi	O'lchov birligi	Art
1	To'qimani bog'lanish koeffitsienti		S	-	21,78
2	O'rilish koeffitsienti		F	-	1,33
3	To'qimani to'ldirilish koeffitsienti		K_{Tyk}	-	174,056
4	To'qimani tanda iplari bilan to'ldirilishi		$K_{\text{Tan.}}$	-	17,262
5	To'qimani arqoq iplari bilan to'ldirilishi		$K_{\text{Apk.}}$	-	10,083
6	To'qimadagi iplarning o'rtacha chiziqli zichligi		T_{yp}	teks	50
7	To'quv dastgohi rusumi				STBT-220
8	To'qima kengligi	Tayyor to'qima	B_m	sm	200
		Xom to'qima	B_x	sm	203,811
		To'qima o'rtasi	B_{yp}	sm	201,811
		To'qima milki	B_m	sm	2
9	Tanda iplarini tig' bo'yicha taxtlash kengligi		$B_{m.mu2}$	sm	214,087
10	To'qima uchun ztanda iplari soni		n_t	dona	6358
11	To'qima uchun arqoq iplari soni		n_a	dona	63
12	Umumiy tanda iplari soni		n_{yMyM}	dona	6421
13	Tig' nomeri		N_{Tuz}		100
14	Tig' tishlari soni		X	dona	2141

4-jadvalning davomi

15	SHodalar soni	n_{uoda}	dona	4
16	SHodadagi gulalar soni	Γ_{yM}	dona	6432
17	Tanda kuzatkichlar soni	$n_{T.K.}$	dona	6421
18	Tanda kuzatkichlar zichligi	$P_{T.K.}$	t.k./sm	15
19	100 m xom to`qima uchun ip sarfi:	$M_{T.T}$	kg	35,074
	a) tanda iplari uchun	$M_{Ap.}$		19,96
	b) arqoq iplari uchun			
20	1 m xom to`qima og`irligi	$M_{noz.M}$	g	567
21	1m ² xom to`qima og`irligi	M_M^2	g	270
22	To`qima yuzasini tolali materiallar bilan qo`lanishi:	E_{Tuk}	%	932,12
	a) Tanda bo`yicha	E_T		863,1
	b) Arqoq bo`yicha	E_A		504,16

1.4 To`quv korxonasini texnologik jarayon va uskunalarni tanlash va asoslash.

Loyihalanayotgan to`quv korxonasining texnologik jarayoni yuqori tezlikda ishlaydigan, sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan bo`lishi kerak. Mashina va dastgohlarni tanlashda asosan foydalaniladigan ipning tolaviy tarkibi, chiziqli zichligi, ishlab chiqariladigan mato turi va ishlatish maqsadi va uning xossalari asosida tanlanadi.

Tanlangan texnologik jarayon quyidagi texnologik shartlarni bajarishi kerak:

- Tanlangan jihozlar zamonaviy talablarga to`liq javob berishi;
- Yuqori sifatli to`qima ishlab chiqarish;
- Yuqori mehnat va mashina unumdorligi;
- Xom ashyodan unumli foydalanish;


- O`timlar soni kamroq bo`lishi;
- Loyihalanayotgan korxona o`zini qo`lash muddati 2-3 yildan oshmasligi kerak.

Yuqorida ko`rsatilganlarni amalga oshirish uchun yuqori samarali dastgoh va mashinalarni tanlash, fan va texnika yutuqlarini qo`llash eng asosiy vazifa hisoblanadi.

To`quv ishlab chiqarish jarayonlari texnologik zanjirini tanlashda asosan to`quv dastgohi turi, ip va to`qima tarkibi, tuzilishi, to`qima eni va kelayotgan o`ram ko`rinishi hisobga olinadi.

To`quvchilik jarayoni uchun xom ashyo – ip turiga qarab, yigiruv korxonalari yoqi kimyo zavodlaridan, ipakchilik korxonalaridan olib kelinadi.

Ip gazlama to`qimalarini to`qishni texnologik jaryoni.



Tandalash jarayoni izoxlash xisob bilan belgilangan tanda iplari bir xil uzunlikda va ma'lum taranglikda bitta o'rama jamlab olishdan iborat. Tandalash mashinalar tandalash usullariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Biz loyixa qilayotgan tandalash texnologik jarayon uchun guruxlab tandalash mashinalari qo'llanadi.[8]

Loyixada qabul qilingan boshqa guruxlab tandalash mashinalaridan ip tanda tezligining yuqoriligi bilan farq qiladi.

Iplarni tandalashdan maqsad - ma'lum uzunlikdagi hisob bilan aniqlangan iplar sonini jamlab bitta o'rama, tandalash g'altagi yoqi to'quv g'altagiga o'zaro parallel qilib o'rashdan iborat.

Tandalash jarayonida to'qimaning tandasi shakllanadi. Texnologik nuqtai nazardan tandalash jarayoni muhim va mahsuliyatli bo'lib, unda bir paytning o'zida bir necha yuz iplardan bitta o'rama olinadi.

Guruhlab tandalashda tandadagi jami iplar bir guruh tanda g'altaklariga teng taqsimlanib ma'lum uzunlikda tanda g'altagiga o'raladi. So'ngra tanda g'altaklaridan tuzilgan guruh ohorlash mashinalariga keltiriladi. Har bir tanda g'altagidagi iplar uzunligi bir nechta to'quv g'altagidagi iplarning uzunligiga teng bo'ladi.

Sanoatda Rossiyaning Sp-140, Sp-180, SHvettsariyaning Benninger ZC-R, AQSHning DW Barber-Qolman , CHexiyaning Kovo kabi guruhlab tandalash mashinalari keng tarqalgan. Bitiruv malaka ishimizda Benninger ZC-R rusumli guruhlab tandalash mashinasini qabul qildik. Bu mashinalar o'zining yuqori enda (1200-2200mm.), sifatli tanda g'altaklarini tayyorlashi bilan birga tandalash tezligi tandalanayotgan ipning chiziqli zichligiga mos ravishda o'zgartirish oralig'ining kengligi bilan ham ajralib turadi. Bu mashinalarga mos ravishda tanda romi : GAAS rusumli to'rtburchakli rom Benninger qabul qilindi va texnik ko'rsatkichlari keltirildi.

Tanda romi

5-jadval

	GAAS	Ko`rsatkichi	O`lchov birligi
1	Romning sigimi Ishchi babina	480	dona
2	Romdagi babina o`lchami O`ram Balandligi	255 150	mm mm
3	Romning o`lchami Uzunligi Kengligi Balandligi	13110 2990 3070	mm mm mm

Benninger ZC-R tandalash mashinasining texnik xarakteristikasi.

6-Jadval

	BENINGER ZC-R	Kursatkichi	O`lchov birligi
1	Mashinaning ishchi eni	1200-2200	Mm
2	Tandalash tezligi	1200	m/c
3	Gardish ogirligi	1200-2200	Kg
4	Gardish diametiri	1000	mm
5	O`zak diametiri	300	mm
6	Elektr yuritkich kuvuti	18,5	kVt
7	Kengligi Uzunligi Balandligi	1775 1710 2325	mm mm mm

[7]

Tandalash ko'rsatkichlari

7-jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	Tandalanayotgan ipni chiziqliy zichligi	Teks	50
2	Tandalash tezligi	m/min	800
3	Tandalashda ipni uzilishi	Uz.	3
4	O'ramning nisbiy zichligi	Gr/sm ³	0,55
5	Davra ramkasi sig'imi	Dona	480
6	Davra g'altagidagi ipning uzunligi	M	28607,467
7	Davra g'altagidagi ipning xajmi	Sm ³	1248102,9
8	Davra g'altagidagi ipning og'irligi	Kg.	656,541
9	Davra g'altagidagi ipning maksimal uzunligi	M	29910,936
10	Davra g'altagidagi ip soni	Dona	459
11	Babinadagi ip og'irligi	Gr.	2885,718
12	Babinadagi ip uzunligi	M.	57714,37

Ohorlash mashinasini tanlash va izohlash

Oxorlash bo'limida oxor tayyorlash va oxorlash uskunalari bo'lishi lozim. Oxorlash jarayonida tanda iplarini ustki qismini silliqqlash pishiqligini oshirish va iplarni uzulishini kamaytirish maqsadida oxor(elim)lanadi.

Tanda iplari davra g'altagidan yechilib,elim vanasida yelimlanadi,maxsus valiklar yordamida siqilib,quritish zonasida ,quritish barabanlari yordamida quritiladi va to`quv g'altagiga o`raladi.

Xozirgi vaqtda korxonalarda MSHB-9-140, MSHB-11-140 va MSHB-9-180, MSHB-11-180 turdagi va zamonaviy SHvetsariyaning Benninger Ben-proqom, Germaniyani Zukker barabanli oxorlash mashinalari qullaniladi.

Oxorlash mashinasini tanlash to`quv g'altagidagi iplarni soniga ,xom to`qimani kengligiga,ipni chiziqliy zichligiga bog`liq bo`ladi. Bu ko'rsatkichlarni hisobga

olgan xolda berilgan ipni oxorlash uchun SHvetsariyaning Benninger Ben-FILATEK turdagi oxorlash mashinasi qabul qilindi.

Ben FILATEK oxorlash mashinasining texnik tavsifi.

8-jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	Taxtlash kenglishi	Mm	2800
2	Tanda iplarini xarakat tezligi	m/min	500
3	Tanda ipipni taxtlash uzunligi		
	Mashinada tirgaksiz	M	33
	Quritish oralig`ida	M	18
4	Vanadagi oxor miqdori	Litr	700
5	Oxormaterialaning issiqlik darajasi	S°	90
6	Mashinaning bo'g'lanish qobiliyati	Kg. Soat	300-450
7	Mashinaning o'lchamlari:		
	Kengligi	Mm	2860
	Tirgagni xisobga olgan uzunligi	Mm	18135
	Balandligi	Mm	3200
	Tirgagni xisobga olmagan uzunligi	Mm	19720
8	Mashinaning og'irligi	Kg	18260
9	Elektrodrigatelgp quvvati	KVT	20,5
10	To'quv g'altagiga tandani o'rash zichligi	Gr.sm ³	0,5

[7]

Oxorlash jarayoni ko'rsatkichlari.

9 -jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	Oxorlanayotgan ipni yo'g'onligi	Teks	50
2	Oxorlashning yuqori tezligi	M.min	25,956

9-jadval davomi

3	Oxorlashda tandani cho`zilishi	%	1
4	Oxorlanayotgan iplar soni	Dona	6421
5	To`quv g`altagidagi ipni og`irligi	Kg	511,126
6	Guruxdagi tanda g`altaklar soni	Dona	14
7	Bitta guruxdan olinayotgan tuquv g`altaklar soni	Dona	8
